



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI




## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul

INDUSTRY  
4.0



Google  
Scholar



Digital  
Object  
Identifier



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Mas'ul muharrir:**

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

***MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI***





# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSİYALANGAN MILLİY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna**

BuxMTI "Ovqatlanishni tashkil etish va servis" kafedrasi assistenti

**Raximova Dilorom Sulaymonovna**

BuxDU Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti stajyor-tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiyligi ovqatlanish korxonalari, ularda xizmat sifati va uni oshirishning yo'llari, zamonaviy konsepsiyalari haqida so'z boradi. Korxona boshqaruvi jarayonida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda diversifikatsiya-langan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanish yo'llari bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat, xizmat ko'rsatish, transformatsiya, servis xizmatlari, umumiyligi ovqatlanish, sifat, diversifikatsiya, milliy hunarmandchilik.

**Abstract:** the article presents proposals for public catering enterprises, the quality of service and ways to improve it, modern concepts, ways to improve the quality of service in the process of enterprise management, and ways to use a variety of handicraft products.

**Key words:** service, service provision, transformation, services, catering, quality, diversification, national craft.

**Аннотация:** В статье представлены предложения для предприятий общественного питания, качество обслуживания и пути его повышения, современные концепции, пути повышения качества обслуживания в процессе управления предприятием, способы использования разнообразной продукции народного промысла.

**Ключевые слова:** сервис, предоставление услуг, трансформация, сервисные услуги, общественное питание, качество, диверсификация, национальное ремесло.

## KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'z mazmuniga ko'ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lган inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta'minlash bo'yicha xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish, servis iqtisodiyoti rivojlanishi, xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, mehnat unumdorligining o'sishi, personalning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq muammolarning fundamental jihatlari Keyns J.M. [1], Marshall A. [2], Shumpeter Y.A., [3], Volgin A.P. [4], Zeithaml V.A., Bitner M.J., Gremler D.D. [5], Odegov Y.G., Abduraxmanov K.X., Kotova L.R. [6] asarlarida yoritib berilgan.

Xususan, Zeithaml V.A., Bitner M.J., Gremler D.D. o'z tadqiqotlarida quyidalarni ta'kidlab o'tgan: "Xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda mijozlarning ehtiyojlarini tushunish va ularga mos xizmatlarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Xizmat sifati, mijozlarning kutganidan yuqori bo'lishi kerak, bu esa ularning qoniqishini oshiradi va sodiqlikni ta'minlaydi. Ovqatlanish korxonalarida xizmat sifatini oshirish uchun xizmat ko'rsatuvchilarni muntazam ravishda treninglardan o'tkazish va ularning professional ko'nikmalarini rivojlantirish zarur".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usulardan foydalanildi. Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikr lash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi.

Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste'molchilarining talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Shuningdek, soha korxonalarining xalqaro bozorlardagi xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda xizmatlar eksporti hajmini ko'paytirish respublikamizda iqtisodiy o'sishga erishishda muhim ahamiyatga ega.


Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo'llanishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iste'mol bozori tarkibida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Aholining ayrim qatlamlarining moddiy farovonligi oshishi natijasida xizmatlarga nisbatan o'zlarining talablari va ehtiyojlar mavjud bo'lgan iste'molchilarining yangi kategoriysi vujudga keldi. Moddiy jihatdan ta'minlangan iste'molchilar o'zlarining hayot qulayliklarini oshirishni ta'minlaydigan turli assortimentdagи xizmatlarga ancha talabgor hisoblanshadi. Shu sababli ayrim xizmat ko'rsatish korxonalari o'z faoliyatlarini aynan aholining shu talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratadilar [7].

Xizmat ko'rsatish sohasini tadqiq etishda, avvalo, ushbu sohaning qanchalik o'ziga xos ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Buning sababi shundaki, xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari, shuningdek, ushbu sohada ishlayotgan xodimlar aholining moddiy, ijtimoiy, kundalik va ma'nnaviy ehtiyojlarining katta qismini qondirishga qodirdir.

Xususan, umumi ovqatlanish korxonalari hamda ularda ko'rsatiladigan xizmat turlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumi ovqatlanish korxonalari zamonaviy jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Restoranlar, kafe va ovqatlanish joylari mijozlar uchun nafaqat ovqatlanish joyi, balki dam olish, uchrashuvlar o'tkazish va zavq olish uchun ham mo'ljallangan. Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish esa bunday korxonalarning muvaffaqiyati va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular quyidagi sxemada o'z aksini topgan.

TARAQQIYOT PROGESS PERSPECTIVE



**1-sxema.** Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari.

Yuqoridagi sxemadan ko'rinish turibdiki, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning bir qator yo'nalishlari bo'lib, ular korxonaning rivojlanishi uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish – xodimlar umumiy ovqatlanish korxonalari muvaffaqiyatining eng muhim elementidir. Sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun xodimlar doimiy ravishda o'qitilib, ularning mala-kasi oshirilib turishi kerak. Buning yo'llari sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin:

- tayyorlov dasturlari: yangi xodimlar uchun ishga kirish dasturlari o'tkazish, ularni mijozlarga qanday munosabatda bo'lish, qanday xizmat ko'rsatish kerakligini o'rgatish.

- doimiy ta'lif: amaldagi xodimlar uchun muntazam seminarlar va treninglar o'tkazish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini yangilab turish.

- motivatsiya va rag'batlantirish: xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirish tizimini joriy qilish, yaxshi ish-lagan xodimlarni tan olish va mukofotlash orqali ularni yanada yaxshi ishlashga undash.

2. Mijozlar bilan muloqot – mijozlar bilan samarali muloqot xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning kalitidir. Bunda,

- muloqot ko'nikmalar: xodimlarga mijozlar bilan muloyim va samimiy muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish.

- mijozlarning fikr-mulohazalari: mijozlardan muntazam ravishda fikr-mulohazalar yig'ish va ularni tahlil qilish orqali xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'llarini aniqlash.

- shikoyatlarni hal qilish: mijozlar shikoyatlariga tezkor va samarali tarzda javob berish tizimini yaratish kabi masalalar muhim hisoblanadi.

3. Sifatli mahsulotlar va xizmatlar – yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar mijozlarning qoniqishini oshiradi. Bularni rivojlantirish uchun quydagilarni inobatga olish lozim.

- yangi va sifatli mahsulotlar: mahsulotlarning sifati va yangi ekanligiga doimiy ravishda e'tibor berish.

- menyuni yangilash: muntazam ravishda menyuni yangilab, mijozlarning didi va talablari asosida yangi taomlar qo'shib borish.

- tezkor xizmat: buyurtmalarni tez va aniq bajarish tizimini joriy qilish.

4. Interyer va atmosfera – korxona ichki muhiti mijozlar uchun muhim ahamiyatga ega. Qulay muhit restoran yoki kafe ichki dizaynnini mijozlar uchun qulay va jozibador qilish, tozalik jihatidan joylarning tozaligi va sanitariya qoidalariqa qat'iy rioya qilish xizmat ko'rsatish korxonalariga murojaat qamrovini kengaytiradi.

5. Innovatsion texnologiyalar – texnologik yangiliklar xizmat ko'rsatishni yanada samarali qilishga yordam beradi. Onlayn buyurtmalar, to'lov tizimlari, CRM tizimlari ham mijozlar bilan aloqalarni boshqarish tizimlarini joriy etish va ular orqali mijozlarga individual yondashish uchun xizmat qiladi.


6. Reklama va marketing – tovar va xizmatlarni targ'ib qilish orqali mijozlar oqimini oshirish uchun xizmat qiladi. Bunga misol sifatida ijtimoiy tarmoqlar, loyallik dasturlari, aksiya va chegirmalarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning ahamiyati keng qamrovi bo'lib, bu nafaqat mijozlarning qoniqishini ta'minlash, balki korxonaning barqarorligi, raqobat-bardoshligi va moliyaviy muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'yaydi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uzoq muddatli muvaffaqiyat va mijozlarning sadoqatini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali korxonalar nafaqat mijozlar qoniqishini oshirishi, balki o'zlarining raqobatbardoshligini ham kuchaytirishi mumkin.



Sifat keng qamrovli tushuncha bo'lib, u mahsulot yoki xizmatning o'ziga xosliklari, talab va kutilgan natijalar bilan qanday darajada mos kelishini belgilaydi. Sifat konsepsiyasi turli sohalarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Umumi ovqatlanish sohasida sifat eng muhim jihat bo'lib, uni oshirish korxona daromadining oshishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda bir qator yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi texnika asrining talabi hisoblanadi. Bu texnologiyalar mijozlarga qulaylik yaratish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va umumiy tajribani yaxshilash orqali raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Quyida umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda qo'llaniladigan ba'zi yangi innovatsion texnologiyalar keltirilgan.



2-rasm. Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmatlar sifatini oshirish uchun qo'llaniladigan yangi innovatsion texnologiyalar

**1. Sun'iy intellekt (AI) va Ma'lumotlar tahlili (ML)**da mijozlarning buyurtmalarini qabul qilish, savollarga javob berish, muammolarni hal qilish, mijozlar bilan 24/7 muloqot qilish va ularga xizmat ko'rsatish, mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda ularga shaxsiylashtirilgan takliflar berish kabi jarayonlar tashkillashtiriladi.

**2. Mobil texnologiyalar va ilovalar** bilan ish yuritishda mijozlar mobil ilovalar orqali buyurtmalarni tez va oson berishlari mumkin, mobil ilovalar orqali stol bron qilish, buyurtma berish va to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

**3. Qo'shimcha reallik (AR) va Virtual reallik (VR)**da AR texnologiyasi yordamida mijozlar menyuni skanerlab, taomlar haqida qo'shimcha ma'lumot olishlari mumkin, AR yordamida taomlarning 3D tasvirlarini ko'rish va ulardagagi ingredientlar haqida ma'lumot olish kabi imkoniyatlari mavjuddir. VR yordamida restoranda mavjud o'rinnlarni ko'rish va stol bron qilish mumkin.

**4. Internet of Things (IoT)** yordamida aqlii stollar va qurilmalar mijozlar buyurtmalarini qabul qilish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtiradi, aqlii stol ustida joylashgan sensorlar orqali buyurtmalarni qabul qilish va tezkor xizmat ko'rsatish mumkin.

**5. Blokcheyn Texnologiyasi** orqali to'lovlarini xavfsiz amalga oshirish, kriptovalyutalar yordamida to'lovlarini qabul qilish va xavfsizligini ta'minlash, blokcheyn texnologiyasi orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini shaffof va nazorat qilish imkoniyati mavjud.

**6. Robotik texnologiyalarda** ofitsiantlar qaysiki mijozlarning buyurtmalarini olib kelish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshiriladi, restoranlarda robot ofitsiantlar orqali tezkor va samarali xizmat ko'rsatish jarayoni olib boriladi. Oshxonadagi xizmatlarning ham avtomatlashtirilishi guvoh bo'lish mumkin.


**7. Big Data va Analitika** yordamida mijozlarning ma'lumotlarini tahlil qilish va xizmat ko'rsatishni optimallashtirish, mijozlarning sevimli taomlari va ichimliklari asosida menyuni optimallashtirish, mijozlarning qoniqish darajasini tahlil qilish va shunga mos ravishda xizmat ko'rsatishni yaxshilash, mijozlarning shikoyatlarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish mumkin.

Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. AI va ML, mobil texnologiyalar, AR va VR, IoT, blokcheyn, robotik texnologiyalar va big data analitika kabi texnologiyalar yordamida xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, mijozlar tajribasini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Ushbu texnologiyalarni joriy etish orqali umumi ovqatlanish korxonalarini mijozlarning talab va ehtiyojlarini samarali qondirishi va ular bilan uzoq muddatli aloqalarni saqlab qolishi mumkin.



Zamonaviylik, texnologiyalarning rivojlanishi muhim bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda milliylik an'analarini saqlab qolish juda ahamiyatlidir. Xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda hamda umumi ovqatlanish korxonalariga mijozlarni yanada jalb qilish maqsadida milliy taomlarning tayyorlanishi, milliy hunarmandchilik mahsulotlarida, ya'ni sopol, cho'yan, mis idishlarda ovqatlarning taqdim etilishi, milliy liboslarda kiyangan ofitsiantlarning xizmat ko'rsatishi bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan asrda o'ta muhim deb hisoblaymiz.

Bugun milliy hunarmandchilik mahsulotlarini diversifikatsiyalash asnosida hunarmandchilik tarmoqlarining klasterlari yaratilgan. Bu klasterlarda xomashyodan tortib to tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayon amalga oshirilib, barchasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Rivojlangan texnologiyalar ham bugungi kunda milliylikni oldinlab ketgan emas. Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda milliylik elementlarining mavjudligi sohaga mijozlarning qiziqishini orttiradi nazarimizda. Umumi ovqatlanish korxonalarida milliylik elementlarini qo'llash xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga katta hissa qo'shadi. Milliylik elementlari mijozlarga o'z milliy madaniyatlarini eslatuvchi va ularga yaqin bo'lgan muhit yaratib, ularda ijobiy taassurot qoldiradi va sadoqatni oshiradi. Quyida milliylik elementlarini umumi ovqatlanish korxonalarida qo'llashning ba'zi usullari keltirilgan(3-rasm).



3-rasm. Umumi ovqatlanish korxonalarida qo'llaniladigan milliylik elementlari.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali bir qator muhim natijalarga erishish mumkin. Ushbu natijalar mijozlarning qoniqishini oshirish, biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirish va moliyaviy natijalarni yaxshilashga olib keladi. Milliylik elementlarini qo'llash esa mijozlar uchun madaniy bog'liqlik tuyg'usini kuchaytiradi va unutilmas tajriba yaratadi. Shu bilan birga, umumi ovqatlanish korxonalarining xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Milliylik elementlarini umumi ovqatlanish korxonalarida qo'llash mijozlarga yaqin va qulay muhit yaratishga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Milliy taomlar va ichimliklar, milliy interyer va dekor, milliy musiqa va madaniyat, milliy liboslar va xizmat ko'rsatish uslublari, milliy retseptlar va texnologiyalar, shuningdek, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash orqali korxonalar mijozlar uchun unutilmas tajriba yaratishi mumkin. Bu esa mijozlarning qoniqish darajasini oshirishga, ularning sadoqatini kuchaytirishga va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. – Москва: КНОРУС, 2007. – 328 с.
- Сфера услуг: новая концепция развития/В.М. Рутгайзер, Т.И. Корягина, Т.И. Арбузов и др. – Москва: Экономика, 1990. – С. 148.
- Urakov J.R. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Samarqand viloyati misolida) // Iqt. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: SamISI. 2011. 15-16 b.
- G.F. Ruziyeva "Oziq-ovqat sanoatida kulolchilik san'ati" Buxoro muxandislik texnologiya instituti "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda ilm-fan va innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amalii konferensiya 2022-yil 21-22-oktyabr 57-62 betlar.



5. Г.Ф. Рузиева “Роль ремесел в формировании национального туристского бизнеса” Министерство науки и высшего образования Республики Казахстан Казахский национальный аграрный исследовательский университет «ОЦЕНКА БИЗНЕСА: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ» Материалы международной научно-практической конференции 07 декабря 2022 г. 146-152 стр .
6. D.S. Raximova “Umumiy ovqatlanish korxonalarida sifat menejmentining asosiy tamoyillari” BuxDU “Tafakkur va talqin” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman 15-may 2024-yil. 756-759-betlar.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoev</b>	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limiň tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов</b>	
Tуризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiyligi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatlari, energiya samarador shamlar turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... Мухамадиева Зарина Баходировна	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ..... Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	132

# MUNDARIJA SODEPZHAHNIYE CONTENTS

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.